



XX ACP BUHORO AMIRLIGI MEMORCHILIGI

Vaxitov M.M¹, Nabiev Xamidjon Mirzo o'g'li²

¹Buxoro muhandislik va texnologiya

instituti Ilmiy rahbar. Professor

²Buxoro muhandislik va texnologiya instituti Bino va

inshootlar arxitekturasini mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6570419>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Buxoro me'morchiligi,
me'morchilik, inshoot,
minora, ark, qal'a devorlari,
madrasa, karvonsaroy,
majmua, saroy, qarorgoh,
guzar, darvoza, dahliz,
xonaqoh, ayvon.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asrda Buxoro amirligida me'morchilik va qurilish ishida qanday an'analar mavjud bo'lganligi u yerda qurilgan Sitorai Mohihossa, Ark, Chor minor, qurilishda qo'llanilgan uslublar, bezaklar tarixi haqida so'z boradi. Bu davr me'morchiligi haqida rus tadqiqotchilari, mahalliy mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganligi sharofati tufayli tariximizning ko'pgina masalalari singari yurtimiz hududida shahar va davlatlarning paydo bo'lishi masalasida ham haqqoniy va xolis fikrlar bildirish imkoniga ega bo'lindi. Bugungi kunda yurtimiz hududida davlatchilikning paydo bo'lishi masalasini o'rganish tarixchilarimiz oldida turgan muhim vazifalardandir. 1998 yil yozida Respublikamiz Birinchi Prezidenti yurtimizning bir guruh tarixchi olimlari bilan bo'lgan uchrashuvida bildirgan fikrlaridan so'ng O'zbekistondavlatchiligini o'rganish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xorazm Surxondaryo va Farg'ona vohalarida davlatchilikning paydo bo'lishi masalasida anjumanlar uyushtirilib, ularda yurtimiz tarixiy-geografik o'lkalarida davlatchilikning paydo bo'lishi masalasida

yangi, ilmiy asoslangan fikrlar bildirildi. O'zbekistondavlatchiligining 3000 yildan ortiq tarixga ega ekanligi to'g'risidagi qarashlar fikrimizning dalilidir

ADABIYOTLAR SHARHI

Buxoro me'morchiligi va qurilish ishi qadimiy tarixga ega. Biz o'rganayotgan davr haqida ko'plab olimlar ham o'z izlanishlarini olib borganlar. Bular, E.Eversman, N.Xanikov, P.P.Shubinskiy, I.I.Umnyakov, V.V.Bartold, O.A.Suxareva, Ye.K.Meyendorf, M.I.Rempel, G.A.Pugachenkova, P.Savelev, mahalliy tarixchilardan, Muhammad Ali Baljuvoni, A.M.Muxamedjonov¹ va boshqalar. Buxoro XIX asrdagi va XX asr boshlaridagi me'moriy an'analarga murojaat etar ekanmiz bu hududda alohida me'moriy

¹ Мухамеджанов А.Р. Историко-топографический план Ахмада Дониша. // Общественная наука в Узбекистане. –Ташкент, 1965, №5



an'ana mavjud bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Buxoro me'morchilik maktabi an'ana bo'lib qolgan uy-joy me'morchiligining yorqin namunalarini o'zida mujassam etgan.²

TADQIQOT METODOLIGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Buxoro shahrining an'anaviy xalq me'morchiligini tavsiflar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, unda turar joy kvartallarini tartib bilan qurish rejalashtirilmagan. Uy-joylar betartib ravishda qurilgan. Ammo kvartallar qurilishini kuzatar ekanmiz, turar-joylar hududida suv havzalari (hovuzlar) borligi odatda ularning atrofida guzarda istiqomat qiluvchilar uchun masjidlar qurilishiga e'tibor berilganligini ilg'ab olish qiyin emas. O'rta Osiyo shaharlari xalq turar joylarining taniqli tadqiqotchisi V. Veronina turar joy qiyofasi bir qator ijtimoiy, tarixiy, etnik, tabiiy iqlim omillari bilan bog'liq ekanligini qayd etgan. «Turar joyning alohidaligi, ko'chadan uning ajratilganligi, ko'chalar orasi aravalarning eni va ko'lami hajmida yo'l qoldirilganini aniqladi. O'rta asr feodal tuzumi sharoitlaridan kelib chiqib turar joylarni yopiq devorlar bilan yakunlashning ham o'z sabablari bor edi. Masalan, ba'zi hollarda o'ziga to'q shaxslar o'z boyligiga bosqinchilarning dahl qilishlaridan himoyalanişga majbur bo'lganlar. Kechki payt aholining xavfsizligi yetarli ta'minlanmagan; yozning yuqori darajadagi issiqligiga qaramay, shaharning nochor sanitar holati, turar joylarning ko'chadan ajratib va qulay mikroiklim

yaratish, tozalikni ta'minlash va hakozolarga majbur bo'lingan.³

Alohida mehmonxonalarni esa faqat badavlat, ta'minlangan oilalargina barpo etganlar. Aholining kambag'al qatlamlarida bunday xonalar bo'lmagan. Ko'pgina oilalarning turarjoylari tarhi, ular a'zolarining soni bilan bog'liq bo'lgan usti yopiq hovlida ayvon inshoot), xo'jalik xonalari, molxona (og'ilxona), xojatxona va hovlini o'ziga qamrab olgan. Buxoroda asosan, odatda ikki yoki uch qavatli uylar qurilgan. Bu holat shahar aholisining zich joylashganligi bilan izohlangan

Mahobatli inshootlardan Meyendorfni xon saroyi – «ark», Miri arab minorasi, masjidi, madrasasi, karvonsaroyi o'ziga jalb etgan³⁰. Biroq Meyendorf mazkur qurilishlarning tarixi xususida batafsil ma'lumotlar bermaydi. Muallif Buxoro bozorlarini juda yorqin ranglarda bayon qiladi.⁴

Buxoro me'morchilik maktabi arxitektura o'ymakorlik, ganchga va yog'ochga naqsh ishlashning o'ziga xos yaxlit bir uslubini ilgari surdi. Xalq ustalari bir sur'atda bo'rttirma naqshlarni bir-biridan ajratish usulini o'zgartirish yo'li bilanoq, bu sur'atga tamomila boshqa tus berdilar. Ularning ijodida asrlardan buyon ishlanib, mukammallashib kelayotgan o'ymakorlik turlaridan – pardoz hammadan ham izchillik bilan aks ettirilgan. O'ymakorlik turlarini xillarga bo'lishda fonning xarakteri, relefning ko'ndalang kesimi, zinadorligi va ko'p xilligi asos qilib olinadi.⁵

². R.E. Xoliqova t.f.d., prof "XIX asr Buxoro amirligida me'morchilik va qurilish ishi" UDK: 728:7.01(575.146) ARXITEKTURA. QURILISH. DIZAYN Ilmiy-amaliy jurnal 2019/2-son 74-b.

³ Веронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана //http://www.buhara.ru/uz/ compsitia/ 356 htm

⁴ Записки о Бухарском ханстве: (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). –М.:Наука. Гл.ред. восточной лит. 1983.-С.98.

⁵ Xolmurod Baxshullayevich Sayfiyev "Buxoro viloyatidagi tarixiy arxitektura obidalari ob'ektlarining turistik marshrutlari va infratuzilmalarini ishlab



Qoraxoniylar sulolasi davrida (XII asr) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) Ark bir necha marta vayron qilindi. Ark XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida hozirgi qiyofasiga kirdi⁵ P.Savelev Ark haqida XIX asrning 30- yillarida quyidagilarni yozadi: Buxorodagi eng ajoyib bino bu ark, qarorgoh yoki xon saroyidir. U deyarli shahar markazida bo'lib, kesik konus shaklidagi balandligi 200 fut bo'lgan tepalikda joylashgan va 60 fut balandlikda bo'lgan tishsimon devor bilan o'ralgan. Qaysiki, u faqat bir darvozaga ega bo'lib, g'ishtdan qurilgan, yon tomonlarida tepalikning asosidan yuqoriga ko'tarilib boruvchi minoralari bo'lgan. Qadimiy ravoqli uzun dahliz tepalikning yuqori qismiga olib boradi: u yerda xon, uning farzandlari, xarami, bosh vaziri ya'ni qushbegi istiqomat qiladigan xonalar bir masjid, bir qancha zaruriy xonalar bo'lib, u yerda hibs qilinganlar va qo'riqchilar va otlar saqlanadigan xonalar bo'lgan. Bularning barchasi bog' bilan o'ralgan. Xufton nomozidan keyin, saroy qorovullari ikki barobar ko'paytirilgan va darvoza berkitilgan⁶.

NATIJALAR

Bu davr ommaviy me'morchiligi o'rganish uchun I.Vitkevichning ma'lumotlari katta ahamiyat kasb etadi. Masalan turar joylar xususida, uylar tagida omborlar va oshxonalar qurilganligi xabarini beradi. Uning yozishicha buxoroliklarning turar joylari uchun gavjum hovlilar, tor eshiklar, tekis tomlar, derazasiz ko'chaga chiquvchi, yopiq devorlar xarakterlidir. Buxoroliklarning to'rt devor ichidagi

turmush tarzi xususida quyidagi ma'lumot guvohlik beradi: «Hovliga ham, uyga ham kishini kiritmaydilar, eshiklar doimo berk bo'ladi; agar kimdir eshikni taqillatsa uy egasi tashqariga chiqadi, ayniqsa musofir kishi bo'lsa mehmonni alohida – mehmonxonada qabul qiladi, biroq hammada ham bunday imkoniyat mavjud emas. U bevosita darvoza oldida joylashgan bo'lib, alohida devor bilan o'ralgan⁷.

G'arb tomonda: podsho taxti «ko'rinishxona» (XVII asrda qurilgan), juma masjidi (XVIII asr), amirning bosh vaziri, «qushbegiybolo» (XIX-XX asr), qutlov hovlisi «salomxona» (XIX-XX asr) va otxona, «sais – hoj» (XIX-XX asr) joylashgan. Janubiy qismda: Xonaqo masjidi (XIX asr) va amir hammomining qoldiqlari (XIX asr) saqlanib qolgan. Shimoliy qismda–Battol – G'ozi xonaqasi (XVIII asr) va «Childuxtaron» (40 qiz) masjidi; mazkur masjid amir Nasrullo farmoniga binoan qatl etilgan qirq qiz xotirasiga (XVIII asrda) qurilgan⁸.

Bugungi kunga kelib, o'tmish me'morlari yaratgan va barchani hayratga solib kelayotgan yodgorliklar bilan tanishish, ularga aloqador tarixiy manbalarni qunt bilan o'rganish kun tartibidagi muhim masalalardan biridir. Zero, madaniy merosni chuqur egallash, undagi ijobiy jihatlarni uzviy rivojlantirish kelajak avlod ma'naviy takomili uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

XULOSA VA MULOHAZALAR

Bir so'z bilan xulosa qilganda bugungi kunga kelib, o'tmish me'morlari yaratgan va barchani hayratga solib kelayotgan yodgorliklar bilan tanishish, ularga

chiqish" Scientific Progress VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601 302-b.

⁶ Савельев П. Бухара 1835 году. С присоединением известий обо всех европейских путешественниках, посещавших этот город до 835 года включительно. – СПб., 1836. –С.8

⁷ Записки о Бухарском ханстве: (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). –М.:Наука. Гл.ред. восточной лит. 1983.-С.104.

⁸ Арк (Бухара). //http ru. Wikipedia. org/ wiki



aloqador tarixiy manbalarni qunt bilan o'rganish kun tartibidagi muhim masalalardan biridir. Zero, madaniy merosni chuqur egallash, undagi ijobiy

jihatlarni uzviy rivojlantirish kelajak avlod ma'naviy takomili uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухамеджанов А.Р. Историко-топографический план Ахмада Дониша. // Общественная наука в Узбекистане. –Ташкент, 1965, №5
2. R.E. Xoliqova t.f.d., prof "XIX asr Buxoro amirligida me'morchilik va qurilish ishi" UDK: 728:7.01(575.146) ARXITEKTURA. QURILISH. DIZAYN Ilmiy-amaliy jurnal 2019/2-son 74-b.
3. Веронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана //http://www.buhara.ru/uz/ compsitia/ 356 htm
4. R.A. Norov "Qurilish jarayonlari texnologiyasi, qurilishni tashkil etish va rejalashtirish" T- 2019 7-b.
5. Iskandarov Haytboy Xasanboy o'g'li "O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasidagi investitsion muhit" "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 3.
6. Xolmurod Baxshullayevich Sayfiyev "Buxoro viloyatidagi tarixiy arxitektura obidalarini ob'ektlarining turistik marshrutlari va infratuzilmalarini ishlab chiqish" Scientific Progress VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601 302-b.
7. Navro'zzoda B.N. Individual sa'y-harakatlar: fuqarolarning jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi oqibatida zarar ko'rmasligida muhim ahamiyat kasb etadi. "Buxoronoma" gazetasi, 8 iyul, 2009 yil. 4b.
8. Дворкович А. "От инструментов макроэкономики к микро - и наноэкономике". <http://allmedia.ru/headlineitem.asp?id=312213>.